

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“ MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” FAKULTETI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI

DIPLOM LOYIXASI BO'YICHA

T U S H I N T I R I S H X A T I

Diplom loyixasining mavzusi: “Irmash-gidravlika” MCHJ sharoitlari uchun 700.01.06 “Richag” detalini tayyorlash texnologik jarayonini va operatsiyalarining texnologik ta'minot vositalari konstruksiyalarini ishlab chiqish.

Yo'nalish: Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jixozlash va avtomatlashtirish

4-kurs 029-13 guruh talabasi:	D.Ahmadaliyev
Kafedra mudiri:	X.Akbarov
Rahbar:	B.Xalnazarov
Maslaxatchilar:	
Texnologik qismi:	B.Xalnazarov
Konstruktorlik qismi:	B.Xalnazarov
Xayot faoliyati xavfsizligi qismi:	A.Raximov
Iqtisodiy qismi:	G.Sattiqulova

Andijon – 2017 yil

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” FAKULTETI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI

DIPLOM LOYIXASINI BAJARISH BO'YICHA

T O P S H I R I Q

Ahmadaliyev Dostonbek Anvarjon o'g'li

1. Diplom loyixasining mavzusi: “Irmash-gidravlika” MCHJ sharoitlari uchun 700.01.06 “Richag” detalini tayyorlash texnologik jarayonini va operatsiyalarining texnologik ta'minot vositalari konstruksiyalarini ishlab chiqish.

Institut bo'yicha 2016 yil 28-dekabrdagi 188-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Diplom loyiasini bajarish uchun ma'lumotlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, qarorlari, farmoyishlari, VM qarorlari, ilmiy-texnik adabiyotlar, internet ma'lumotlari, detal ishchi chizmasi, ishlab chiqarish xajmi.

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar:

1) Kirish. O'zbekistonning rivojlanishda mashinasozlik sanoatining roli ahamiyati, qaror va farmonlar, diplom loyixasining maqsad va vazifalari to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

2) Umumiy kism. Detalning xizmat vazifasi, ishlab chiqarish turini aniqlash va boshqalar.

3) Texnologik qism. Zagatovka olish turini tanlash, texnologik jarayon marshuritini ishlab chiqish, detal konstruksiyasini texnologiklikka taxlili, zagatovkaga ishlov berishda qo'yim xisobi, kesish maromlarini xisoblash, vaqt me'yorini xisoblash.

4) Konstruktorlik qismi. Dastgox moslamasi, kesuvchi asbob va o'lchov vositalarini bayon va xisoblari.

5) Xayot faoliyati xavfsizligi qismi. Loyihalanayotgan ishchi joyini mehnat sharoitlarining ta'rifi, ishlab chiqarish joyida yoritish tizimini tanlash, ventilatsiya tizimini tanlash, elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, aloqa yong'in signalizatsiya tizimi va boshqalar, mexnat xavfsizligi bo'yicha barcha talablar va qonun qoidalar.

6) Iqtisodiy qism. Texnologik jarayonning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

7) Xulosa. Bajarilgan diplom loyixasi bo'yicha xulosalar va takliflar yoritiladi.

8) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. Bajarilgan diplom loyixasi bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

9) Ilovalar. Spetsifikatsiyalar va texnologik jarayon xujjatlari.

4. Diplom loyiasining chizmalari ro'yhati:

1. Detal ishchi chizmasi
2. Zagotovka chizmasi.
3. Texnologik sozlash kartalari.
4. Moslama chizmasi.
5. Kesuvchi asbob chizmasi.
6. O'lchov vositasi yoki uchastka plani.

5. Diplom loyixasi qismlari bo'yicha maslahatchilar:

№	Diplom loyixasining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchining familiyasi va ismi
1	Texnologik qism	25.03.17	20.04.17		B.Xalnazarov
2	Konstruktorlik qismi	25.04.17	20.05.17		B.Xalnazarov
3	Xayot faoliyati xavfsizligi qismi	20.05.17	1.06.17		A.Raximov
4	Iqtisodiy qism	1.06.17	10.06.17		G.Sattiqulova

6. Topshiriq berilgan sana :**11.01.2017****7. Diplom loyixasini
topshirish sanasi:****12.06.2017****Rahbar:**

K.Yuldoshev

(imzo)**Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi**

T.Mamadaliyev

(imzo)**Kafedra mudiri**

X.Akbarov

(imzo)

Mundarija

1. KIRISH.....	1
2. UMUMIY QISM	2
2.1. Detal xizmat vazifasi	
2.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash.....	
3. TEXNOLOGIK QISM.	
3.1. Detal tuzilishining texnologiklikligi va uning miqdoriy ko‘rsatkichlari.....	
3.2. Zagotovka tanlash	
3.3. Zagatoakaga ishlov berishda quyim hisobi	
3.4. Texnologik jarayon marshrutini ishlab chiqish	
3.5. Kesish maromlarini hisoblash.....	
3.6. Vaqt me’yorini xisobi	
4. KONSTRUKTORLIK QISM	
4.1. Dastgoh moslamasini bayoni va hisobi	
4.2. Dastgoh moslamasini aniqlikka hisoblash.....	
4.3. Kesuvchi asbobni bayoni va hisobi	
4.4. Tekshiruv moslamasini bayoni	
5. IQTISODIY QISM.....	
6. XAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI	
Xulosa.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	
Ilovalar.....	

KIRISH

Davlatimizning dunyodagi sanoati rivojlangan mamlakatlaridan o'z o'rnini egalallashda yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da ko'rsatilgan asosiy masaladir. Bunday mutaxassislar zamonaviy mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni, loyihalashni, avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlaridan foydalanishni, raqamli dastur bilan boshqariladigan dastgohlar asosida yuqori unumdorlikdagi moslanuvchan ishlab chiqarish modullarni va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishni har tomonlama bilishlari va ulardan foydalana olishlari kerak. SHuning uchun bitiruv malakaviy ishi zamonaviy mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or texnika va yuqori texnologiyalardan foydalangan holda bajarilishi kerak.

Jamiyatning moddiy texnika bazasini yaratuvchi va mamlakatimizning texnik taraqqiyotini rivojlanishini belgilovchi soha mashinasozlikdir. U sanoatning turli tarmoqlarini yangi texnika, ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlaydi. Shu sababli mashinasozlik ishlab chiqarishning barcha sohalarini rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi sanoatning muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Mashinasozlikning asosini mashinalarni loyixalash va ishlab chiqarish tashkil etadi. Mashinalar o'z navbatida jamiyat turmush farovonligini ko'rsatadi. Ular ish unumdorligini, mehnat samaradorligini va mahsulot sifatini oshiradilar. Mustaqillikning boshlang'ich davridayoq, mamlakatimizda mashinasozlikni rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi. Ko'plab qo'shma korxonalari mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqara boshladi.

Mashinalarga yuqori aniqlik va tezlik, issiqlikka chidamlilik, kichik vazn va xajm, mustahkamlik va ishonchlilik kabi yuqori talablar qo'yilgan. Bunday talablarni oshib borishi mashinasozlar oldiga murakkab konstruktorlik va texnologik savollarni qisqa vaqt ichida echish masalasini qo'ymoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikamiz mashinasozligi oldida yaqin yillarda mo'ljallagan ulkan va ma'suliyatli vazifalar turibdi. Bular jumladan xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yuqori darajasida ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan energiya va metalni iqtisod qilish texnologiyalarini keng qo'llash, mashinasozlik mahsulotlarini texnik darajasini va sifatini oshirish, zararli va og'ir qo'l mehnatini engillashtiruvchi mashina va jihozlarni chiqarish, materiallarga ishlov berish dastgohlari sifatini yaxshilash.

1. Umumiy qism.

1.1 Detalni xizmat vazifasi.

“Richaglar” mashinasozlikda, sanoatda, qishloq xojaligidagi mashina, mexanizm va uzellarda juda ko‘plab foydalanadi. Uning materiyali Stal 40X GOST 4543-71, og‘irligi $m=4.1$ kg. Bunday detallar mashina, gidravlik qurilmalarda, Mashinalarda boshqaruv tizimida buruvchi, ko‘taruvchi element sifatida ishlatiladi.

Detalning asosiy yuzalari C, va F yuzalar bo‘lib, yuza g‘adir-budirligi Ra 1.25 mkm, o‘lcham aniqligi bo‘yicha 7 kv dadir. A va B yuzalar g‘adir –budurligi $Ra=2,5$ mkm, o‘lcham aniqligi 9 kv dadir

1.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash.

Har bir mashinasozlik korxonasi bir yil davomida ishlab chiqarishga kerak bo‘lgan mahsulot va zaxira qismlarining ma‘lumotiga ega. Bu ma‘lumot ishlab chiqarish dasturi deb ataladi va unda ma‘lumotni turi, soni, o‘lchami va materiali to‘g‘risida ham etarlicha axborot bor. Korxonaning umumiy ishlab chiqarish dasturiga asosanssexlar bo‘yicha ishlab chiqarish dasturi tuziladi. Har bir mahsulot umumiy ko‘rinishining chizmasi, detallarning ishchi chizmasi, yig‘uv chizma, spetsifikatsiyalar va texnik talablar bilan boyitiladi.

Ishlab chiqarish dasturining xajmi, mahsulot tasnifi, jarayonning texnik va iqtisodiy shartlariga asosan shartli ravishda uchta ishlab chiqarish turi mavjud: donali, seriyali, yalpi. Har bir ishlab chiqarish turi o‘ziga xos tashkiliy shaklga ega. Shuni aytish kerakki, bitta korxonada xar-hil ishlab chiqarish turlari bo‘lishi mumkin.

Ishlab chiqarish turi va unga to‘g‘ri keladigan ishni tashkil qilish shakli texnologik jarayonni tasnifini hamda uning tuzilishini aniqlaydi. SHuning uchun ham ishlab chiqarish turini aniqlash detalga mexanik ishlov berish texnologik jarayonni loyixalashni boshlang‘ich asosiy bosqichidir. Ishlab chiqarish turini jadvallar usuli bilan aniqlaganda detalning og‘irligi va yillik ishlab chiqarish dasturi talab qilinadi.

Bunda $N=8000$ dona va $m=4.1$ kg bo‘lganda ([5],2j,18b) ishlab chiqarish turi o‘rta seriyali deb aytishimiz mumkin.

Berilgan yillik dasturga asosan ishlab chiqarish qadamini quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi.

$$t_b = \frac{F_g \cdot 60}{N} = \frac{4029 \cdot 60}{8000} = 30 \frac{\partial ak}{\partial ona}$$

bu erda: $F_g = 4029$ coam – dastgohlarni bir yillik haqiqiy ishlash vaqti fondi; $N=8000$ dona – yillik ishlab chiqarish dasturi.

Bo‘limdagi ish tartibi 2 smenali. Seriyali ishlab chiqarish turida detallarni partiyalarga bo‘lib ishlov berish sababli partiyadagi detallar sonini hisoblab topish talab qilinadi.

$$n = \frac{N \cdot a}{F} = \frac{8000 \cdot 3}{254} = 94 \partial ona$$

bu erda: $a=3,6,12,24$ kun – partiyadagi detallarni ishlov berishga kiritilish davri; $F=254$ kun – bir yildagi ishchi kunlar soni.

2. TEXNOLOGIK QISM

2.1. Detal tuzilishining texnologiklikligi va uning miqdoriy ko'rsatkichlari

Ishlab chiqarish ob'ekti bo'lgan mahsulot konstruksiyasini texnologikligi quyidagi nuqtai nazarlar bo'yicha taxlil qilinadi: qo'llaniladigan materialning ko'rinishi va turi, xom-ashyoni ko'rinishi va tayyorlash uslublari, qo'llaniladigan ishlov berish yig'ish tayyorlash korxonasidan tashqarida montaj qilish va sinashni texnologik usullari va ko'rinishlari, progressiv texnologik jarayonlar, shuningdek kam mehnat va energiya sarflanadigan, chiqindisiz tipaviy texnologik jarayonlardan foydalanganlik darajasi, jarayonlarni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish imkoniyati, unifikatsiyalangan yig'ish birikmalari va detallarni qo'llash darajasi, tayyorlovchi korxonani o'ziga xos xususiyatlari, talab qilingan ishchilar klafikatsiyalari.

Detalning ishchi chizmasini taxlil qilish shuni ko'rsatadiki detalni ishchi vazifasini o'zgartirmagan holda uni tuzilishi elementlarini qisqartirish imkoniyati yo'q. Detal tuzilishi xom-shayo olishni ratsional usullaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Ishlov berishda qiyinchilik tug'diradigan va maqsadga muvofiq bo'lmagan yuzalar aniqlanadi. Zagotovka tuzilishi va mustaxkamligi va uni unumdorligini yuqori bo'lgan ishlov berish usullaridan foydalanishni chegaralanmaydi. Materialni ishlov beriluvchanligi tig'li va obraziv asboblardan foydalanishga imkon beradi. Texnologiklik va aniqlik bo'yicha taxlil texnologik jarayon marshrutini tuzish dastgohlarni nazorat ishlarini aniqlashga negiz bo'lib qoladi.

Detal konstruksiyasini texnologikligi — konstruksiyasini shunday xossalari yig'indisiki bunda bir xil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bir xil sharoitda tayyorlangan va ekspluatatsiya qilinadigan o'xshash konstruksiyasiga ega bo'lgan maxsulotga nisbatan yanada samarador texnologiyalar bilan ishlov berish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Detalni texnologilikka taxlil qilish ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni muxim masalasidir.

Bajarilgan taxlil quyidagi koefitsentlarni aniqlashga imkon beradi.

Konstruktiv elementlarni unifikatsiyalanganlik koefitsenti.

$$K_{y.e} = \frac{Q_{y.e}}{Q_e}$$

bu erda:

$Q_{y.e}$ va Q_e unifikatsiyalangan konstruktiv elementlar soni va detalni hamma elementlar soni

$$K_{m.e} = \frac{Q_{m.e}}{Q_e} = \frac{4}{12} = 0.33$$

Ishlov berish aniqligi koefitsenti.

$$K_a = 1 - \frac{1}{A_{yp}}$$

bu erda:

$$A_{yp} = \frac{1n_1 + 2n_2 + 3n_3 + \dots + 19n_{19}}{\sum_{i=1}^{19} n_i} = \frac{7 \cdot 2 + 9 \cdot 6 + 14 \cdot 4}{12} = \frac{124}{12} = 10.3$$

$$K_a = 1 - \frac{1}{A_{yp}} = 1 - \frac{1}{10} = 0.9$$

Yuzalar g'adir–budurluk koeffitsenti.

$$K_u = \frac{1}{III_{yp}}$$

bu erda:

$$III_{yp} = \frac{0.01n_1 + 0.02n_2 + \dots + 40n_{13} + 80n_{14}}{\sum_{i=1}^{14} n_i} = \frac{2.5 \cdot 6 + 12.5 \cdot 4 + 1.25 \cdot 2}{12} = 5.6$$

$$K_{uu} = 1 - \frac{1}{III_{yp}} = 1 - \frac{1}{5.6} = 0.82$$

Bajarilgan taxlil yig'uv birikmaning berilgan detalni to'g'ri loyixalashga imkon beradi

2.2. Zagotovka turini tanlash va uni olish usulini aniqlash

Zagotovkalar toza va xomaki zagotovkalarga bo'linadi. Toza zagotovka deganda tayyorlangandan keyin kesib ishlanmaydigan, o'lchamlari va tozaligi tayyor detal chizmasida ko'rsatilgan o'lcham va tozalikka to'g'ri keladigan zagotovkalar tushuniladi. Xomaki zagotovkalar chizma talablariga muvofiq keladigan o'lcham, aniqlik va tozalikdagi detal hosil qilish maqsadida qo'yim kesib olish uchun mexanik ishlanishi zarur bo'lgan zagotovkalardir.

Mashina detallari uchun zagotovkalar asosan quyidagi usullar bilan tayyorlanadi:

- qora va rangli metallardan quyish yo'li bilan;
- bosim bilan ishlash (bolg'lash va shtamplash) orqali;
- qora va rangli metallar prokatidan;
- metallokeramikadan (kukun metallurgiyasi yo'li bilan);
- payvandlash – zagotovka qismlarini bir butun qilib ulash yo'li bilan;
- metallmas materiallardan (plastik massalar va boshqalardan).

Zagotovka olish usulini tanlash, detalni o'lcham va materiali, ishchi vazifasi, uni tayyorlashga texnik talablar, yillik dastur va umumiy tuzilishi kabi omillar belgilab beradi. Bu masalani hal qilishda zagotovka o'lchami va tuzilishi detalni o'lcham va tuzilishiga maksimal yaqin bo'lishini ta'minlash kerak. Lekin shuni unutmaslik kerakki, zagotovka aniqligini oshirish va tuzilishini murakkablashtirish uni tannarxini oshishiga olib keladi. SHuning uchun ham zagotovka olishni optimal usuli zagotovka tannarxi kam bo'lgandagi usulidir.

Zagotovka olishni mavjud usullarini tahlil qilib, berilgan ishlab chiqarish sharoitida detalimiz uchun zagotovkani quyish yo'li bilan olamiz.

2.3. Texnologik jarayon marshrutini ishlab chiqish

Operatsiya №	O'tishlar №	Operatsiya va o'tishlar nomi va mohiyati.	Kesish dastgohi nomi	Moslama turi	Kesuvchi asbob nomi	O'lchov asbobi
1	2	3	4	5	6	7
005	Vertikal frezalash A o'rnatish		Vertikal frezalash dastgohi 6H12PB	Tiski	Torets freza	Shtangen sirkul (Shs 126)
	1	A yuza l=170mm, b=120mm, h=75mm o'lchamni ushlab qora frezalansin.				
	2	A yuza l=170mm, b=120mm, h=74mm o'lchamni ushlab toza frezalansin.				
		B o'rnatish			Torets freza	
	1	B yuza l=170mm, b=120mm, h=71mm o'lchamni ushlab qora frezalansin.				
	2	B yuza l=170mm, b=120mm, h=70mm o'lchamni ushlab toza frezalansin.				
010		Kordinatali kengaytirish	Kordinat ali kengaytirish dastgohi 2450	Maxsus moslama	kengaytiruvchi keskich	Shtangen sirkul (Shs 126)
	1	F teshik Ø48,7mm, l=70mm masofda ushlab qora yo'nib kengaytirilsin			kengaytiruvchi keskich	
	2	F teshik Ø50mm, l=70mm masofda ushlab toza yo'nib kengaytirilsin				
015		Gorizontal frezalash	Universal frezalash	Maxsus tiski	Disk freza	Shtangen sirkul (Shs 126)
	1	C yuza b= 30mm,				

		l=50mm masofani ushlab frezalansin	dastgohi 6H81			
020		Vertikal parmalash A o'rnatish	Vertikal parmalash dastgohi 2A135	Mahsus moslama	Parma Ø15 P6M5 (GOST 12122- 77)	Shtangen sirkul (Shs 126)
	1	Ø15mm, l=70mm masofani ushlab D1va D2 teshiklar parmalansin				
	2	D1va D2 teshiklar Ø16mm, l=70mm masofani ushlab zenkerlansin			Zenker Ø16	Kolibr probka
	3	D1 yuzada faska ochilsin			Zenkovka	
		B o'rnatish				
	4	D2 yuzada faska ochilsin			Zenkovka	
025		Vertikal parmalash	Vertikal parmalash dastgohi 2A135	Mahsus moslama		Shtangen sirkul (Shs 126)
	1	Ø5mm l=30 mm masofani ushlab K teshik ochilsin			Parma Ø5mm	
	2	Ø7mm l=5 mm masofani ushlab N teshik sikofkalansin			Sekovka Ø7mm	
	3	Ø15mm l=8 mm masofani ushlab N teshik sikofkalansin			Sekovka Ø15mm	
030		Gorizontall frezalash	Univeers al frezalash dastgohi 6H81	Mahsus moslama	Disk freza	Shtangen sirkul (Shs 126)
	1	H ariqcha b=5mm, l=60mm, h=70mm o'lchamda ochilsin.				
035		Radial parmalash	Radial parmalash 257	Mahsus moslama	Parma Ø4.8mm	Shtangen sirkul (Shs 126)
		E ₁ va E ₂ teshiklar Ø4,8mm, l=12mm olchamda ochilsin.				
		E ₁ va E ₂ teshiklar M6, l=12mm rezba ochilsin.			Metchik M6	Rezbomer
040		Radial parmalash	Radial parmalash	Mahsus moslama	Parma Ø5mm	Shtangen sirkul
	1	G ₁ teshik Ø10mm,				

		l=25mm o'lchamda ochilsin	257			(Shs 126)
	2	G ₂ teshik Ø10mm, l=25mm o'lchamda ochilsin			Parma Ø5mm	

2.4. Zagatovkaga ishlov berishda qo'yim hisobi

1. Diametri Ø50 H7 bo'lgan F yuza uchun qo'yim miqdorini hisoblaymiz. Zagotovka quyma usuli bilan olingan.. F yuza ishlov berish texnologik marshruti qora, toza yo'nishdan va jilvirlashdan iborat.

Aylanuvchi detallarga ishlov berishda qo'yimlarni aniqlash quyidagi formula yordamida topiladi [7, 37 b.]:

$$2z_{i\min} = 2(R_{z_{i-1}} + T_{i-1} + \sqrt{\rho_{i-1}^2 + \varepsilon_i^2}),$$

Zagotovka uchun profilning notekisliklari balandligi R va sirt qatlamdagi nuqsonlar chuqurligini T jadvaldan olamiz:

- 1) zagotovka uchun: $R=320$ mkm; $T=320$ mkm [7, 10 b.];
- 2) qora yo'nish uchun: $R=240$ mkm; $T=240$ mkm [7, 10 b.];
- 3) toza yo'nish uchun: $R=20$ mkm; $T=20$ mkm [7, 10 b.];

Dopusklar miqdori:

- zagotovka uchun $\delta=620$ mkm;
- qora yo'nish uchun $\delta=62$ mkm;
- toza yo'nish uchun $\delta=25$ mkm;

Fazoviy chetlanishlarning umumiy yig'indisi quyma zagatovkalarni yo'nish jarayoni quyidagi formula yordamida topiladi:

$$\rho_{i-1} = \sqrt{\rho_{cm}^2 + \rho_{kop}^2}$$

$$\rho_{cm} = \delta = 620 \text{ mkm}$$

$$\rho_{kor} = \rho_k = \Delta_{kr} l = 4 \cdot 70 = 280 \text{ mkm};$$

$$\Delta_{kr} = 4 \text{ mkm [7, 16 b.]}$$

$$\rho_{i-1} = \sqrt{620^2 + 280^2} = 680$$

Qoldiq fazoviy chetlanishlar:

- qora yo'nishdan so'ng: $\rho_1 = 0,6 \cdot 280 = 168$ mkm;
- toza yo'nishdan so'ng: $\rho_2 = 0,5 \cdot 280 = 140$ mkm

$$\varepsilon_i = \sqrt{\varepsilon_6^2 + \varepsilon_3^2}$$

$$\varepsilon_6 = 0;$$

$$\varepsilon_3 = 320 \text{ mkm. [4, 23 b.]}$$

$$\varepsilon_i = \sqrt{0^2 + 320^2} = 320 \text{ mkm}$$

- qora yo'nishdan so'ng: $\varepsilon_1 = 0,05 \cdot 320 = 16$ mkm;
- toza yo'nishdan so'ng: $\varepsilon_1 = 0,04 \cdot 320 = 12,8$ mkm;

Qo'yimlarning minimal miqdorini hisoblaymiz:

- qora yo'nish: $2z_{min_3} = 2(640 + \sqrt{680^2 + 320^2}) = 2783 \text{ mkm}$
- toza yo'nish: $2z_{min_3} = 2(480 + \sqrt{168^2 + 16^2}) = 1297 \text{ mkm}$

dhis2=50mm;

dmax2= 50 + 0.025 = 50.025 mm;

dhis1=50 - 1.3 = 48.7 mm;

dmax1 = 48.7 + 0.062 = 48.762 mm;

dhis1=48.7 - 2.8 = 45.9 mm;

dmax1 = 45.9 + 0.62 = 46.52 mm;

Zagotovkaning hisobiy o'lchamlarini aniqlaymiz:

2.1-jadval

Texnologik ishlov berish	Qo'yim elementlari, mkm				$2z_{min}$	d_h , mm	Dopusk δ , mkm	CHegaraviy o'lcham, mm		Qo'yimlar chegarasi, mkm	
	R_z	T	ρ	E				d_{min}	d_{max}	$2z_{min}^{ch}$	$2z_{max}^{ch}$
Zagotovka prokat	320	320	680	320		45.9	620	45.28	46.52		
Qora yo'nish	240	240	168	16	2.8	48.7	62	48.638	48.762	2242	3358
Toza yo'nish	20	20	140	12.8	1.3	50	25	49.975	50.025	1263	1337

Quyimlarning eng katta va eng kichik qiymatlari yig'indisini aniqlaymiz:

$2z_{min}^{ch} = 3505 \text{ mkm}$; $2z_{max}^{ch} = 4695 \text{ mkm}$.

Hisoblar to'g'riligini tekshiramiz.

$$2z_{max}^{ch} - 2z_{min}^{ch} = \delta_z - \delta_d$$

$$4695 - 3505 = (620 - 25) \cdot 2$$

$$1190 = 595 \cdot 2$$

Jadval usuli bilan mexanik ishlov berish uchun qoldirilgan qo'yim miqdorini hisobi (hamma qolgan yuzalar uchun). ([7], 178 b.)

Ishlov beriladigan yuza	O'lcham	Qo'yim		Chetlanish, mm
		Jadval, mm	Hisobiy, mm	
A va B	70 h14	4	10	+0.2 -0.2
C	$\emptyset 16$ H7	2		+0.43

2.5. Kesish maromlarini hisoblash

005. Vertikal frezalash operatsiyasi.

1-o'tish. A yuza $l=170\text{mm}$, $b=120\text{mm}$, $h=74\text{mm}$ o'lchamni ushlab qora frezalansin.

Frezalash eni $B=120\text{mm}$, uzunligi $l=130\text{mm}$, qo'yim miqdori $h=2 \text{ mm}$

Dastgoh 6N12PB vertikal frezalash dastgohi. Ishlov berilayotgan material St 40X, $\sigma_B=568 \text{ MPa}$.

Kesuvchi asbob torets freza D=200 mm, GOST 1671-77. Kesuvchi qismi materiali T15K6, tishlar soni $z=20$ ta; Geometrik parametrlari: $\varphi=60^0, \varphi_1=5^0, \varphi_0=20^0, \lambda=+5^0, \gamma=-5^0, \alpha=12^0$

1. Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

2. $t=h=2\text{mm}$

2.Surish miqdori

$S_z=0.09-0.18 \text{ mm/ayl}$ ([3], 2.78-j, 86-b)

$S_z=0.15$ qabul qilamiz

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v;$$

T –frezani turg'unlik davri, $T=240 \text{ daq}$ ([3], 2.85-j, 93-b)

K_v - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{pv} \cdot K_{uv}$$

K_{mv} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_f \left(\frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$n_v=1; K_G=1$ ([3], 2.2-j, 35-b)

$$K_{mv} = 1 \cdot \left(\frac{750}{568} \right)^1 = 1.3$$

K_{pv} - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$K_{pv}=0.8$ ([3], 2.5-j, 37-b)

K_{uv} - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$K_{uv} = 1$ ([3], 2.6-j, 37-b)

$$K_v = 1.3 \cdot 0.8 \cdot 1 = 1.04$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$C_v=332, q=0.2, x=0.1, y=0.4, u=0.2, r=0, m=0.2$ ([3], 2.84-j, 90-b)

$$V = \frac{332 \cdot 200^{0.2}}{240^{0.2} \cdot 2^{0.1} \cdot 0.15^{0.4} \cdot 120^{0.2} \cdot 20^0} \cdot 1.04 = 254 \text{ m/daq}$$

4.Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 254}{3.14 \cdot 200} = 405 \text{ min}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib $n=400 \text{ ayl/daq}$ qabul qilamiz.

5.Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 200 \cdot 400}{1000} = 251 \text{ m/daq}$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0.15 \cdot 400 \cdot 20 = 1200 \text{ mm/daq}$

Dastgoh pasportidan $S_M=1250 \text{ mm/daq}$ qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{1250}{20 \cdot 400} = 0.156 \text{ mm/daq}$$

7.Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$R_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp};$$

K_{mp} - to'g'rilash koeffitsienti:

$$K_{mp} = \left(\frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=0.3 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left(\frac{568}{750} \right)^{0.3} = 0.9$$

$$C_p=825, \quad x=1, y=0.75, \quad n=1.1, \quad q=1.3, \quad w=0.2 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

$$P_z = \frac{10 \cdot 825 \cdot 2^1 \cdot 0.156^{0.75} \cdot 120^{1.1} \cdot 20}{200^{1.3} \cdot 400^{0.2}} \cdot 0.9 = 2097 \text{ N}$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z \cdot v}{1020 \cdot 60} = \frac{2197 \cdot 251}{1020 \cdot 60} = 8,46 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 10 \cdot 0,85 = 8,5 \text{ kVt.}$$

$$8,46 \leq 8,5$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 170 \text{ mm},$$

$$y = 0,5 \left(D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0,5 \left(200 - \sqrt{200^2 - 120^2} \right) = 20 \text{ mm}$$

$$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm. } \Delta = 3 \text{ mm qabul qilamiz.}$$

$$T_{as} = \frac{L}{S_M} = \frac{193}{1250} = 0,15 \text{ daq}$$

2-o'tish. A yuza $l=170 \text{ mm}$, $b=120 \text{ mm}$, $h=73 \text{ mm}$ o'lchamni ushlab toza frezalansin.

Frezalash eni $B=120 \text{ mm}$, uzunligi $l=170 \text{ mm}$, qo'yim miqdori $h=1 \text{ mm}$

Kesuvchi asbob torets freza $D=200 \text{ mm}$, GOST 1671-77. Kesuvchi qismi materiali T15K6, tishlar soni $z=20$ ta; Geometrik parametrlari: $\varphi=60^\circ$, $\varphi_1=5^\circ$, $\varphi_0=20^\circ$, $\lambda=+5^\circ$, $\gamma=-5^\circ$, $\alpha=12^\circ$

3. Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

4. $t=h=1 \text{ mm}$

2. Surish miqdori

$$S_z = 0.09-0.18 \text{ mm/ayl} \quad ([3], 2.78-j, 86-b)$$

$$S_z = 0.15 \text{ qabul qilamiz}$$

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v;$$

$$T - \text{frezani turg'unlik davri, } T=240 \text{ daq} \quad ([3], 2.85-j, 93-b)$$

K_v - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v = 1.3$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$$C_v=332, \quad q=0.2, \quad x=0.1, \quad y=0.4, \quad u=0.2, \quad r=0, \quad m=0.2 \quad ([3], 2.84-j, 90-b)$$

$$V = \frac{332 \cdot 200^{0,2}}{240^{0,2} \cdot 1^{0,1} \cdot 0,15^{0,4} \cdot 120^{0,2} \cdot 20^0} \cdot 1,04 = 272 \text{ m/daq}$$

4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 272}{3,14 \cdot 200} = 433 \text{ min}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib $n=400$ ayl/daq qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 200 \cdot 400}{1000} = 251 \text{ m/daq}$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0,15 \cdot 400 \cdot 20 = 1200 \text{ mm/daq}$$

Dastgoh pasportidan $S_M = 1250$ mm/daq qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{1250}{20 \cdot 400} = 0,156 \text{ mm/daq}$$

7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$R_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp};$$

K_{mp} - to'g'rilash koeffitsenti:

$$K_{mp} = 0,9$$

$$C_p = 825, \quad x = 1, \quad y = 0,75, \quad n = 1,1, \quad q = 1,3, \quad w = 0,2 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

$$P_z = \frac{10 \cdot 825 \cdot 1^1 \cdot 0,156^{0,75} \cdot 120^{1,1} \cdot 20}{200^{1,3} \cdot 400^{0,2}} \cdot 0,9 = 1048 \text{ N}$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z v}{1020 \cdot 60} = \frac{1048 \cdot 251}{1020 \cdot 60} = 4,2 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 10 \cdot 0,85 = 8,5 \text{ kVt.}$$

$$4,2 \leq 8,5$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 170 \text{ mm,}$$

$$y = 0,5 \left(D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0,5 \left(200 - \sqrt{200^2 - 120^2} \right) = 20 \text{ mm}$$

$$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm. } \Delta = 3 \text{ mm qabul qilamiz.}$$

$$T_{as} = \frac{L}{S_M} = \frac{193}{1250} = 0,15 \text{ daq}$$

B o'rnatish

B o'rnatish kesish maromlari A o'rnatish kesish maromlari qiymatlariga teng deb olinsin.

010. Kordinatali kengaytirish operatsiyasi.

1-o'tish. F teshik $\varnothing 48,7\text{mm}$, $l=70\text{mm}$ masofda ushlab qora yo'nib kengaytirilsin

Dastgoh: Gorizontall kengaytirish dastgohi 262G. Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori $h=1.4\text{ mm}$. Zagotovka materiali Stal 40X.

Kesuvchi asbob : Kengaytiruvchi keskich , kesuvchi qismi materialiyali T15K6, keskich tanasi materialiyali Polat 40, ko'ndalang kesim yuzasi $16 \times 25\text{ mm}$, $l=160\text{ mm}$

Geometrik elementlari:

$$\gamma = 10^0; \alpha = 12^0; \lambda = 0, \varphi = 45^0, \varphi_1 = 45^0, r=1\text{ mm}$$

Kesish maromini belgilaymiz.

1.Kesish chuqurligini belgilaymiz. $t=h=1.4\text{ mm}$.

2.Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o=0.5-0.9\text{ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_o=0.74\text{ mm/ayl}$ ni qabul qilamiz.

3.Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri, $T=30\dots 60\text{ daqiqa}$ ([3], 46-b)

$T=60\text{ daqiqa}$ qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v=340, x=0.15, y=0.45, m=0.20\text{ ([3], 2.19-j, 46-b)}$$

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{pv} \cdot K_{iv}$$

K_{mv} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_r \left(\frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \text{ ([3], 2.1-j, 34-b)}$$

$$n_v=1; K_G=1 \text{ ([3], 2.2-j, 35-b)}$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left(\frac{750}{598} \right)^1 = 1.3$$

K_{pv} - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{pv}=0.8 \text{ ([3], 2.5-j, 37-b)}$$

K_{uv} - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \text{ ([3], 2.6-j, 37-b)}$$

$$K_v = 1.3 \cdot 0.8 \cdot 1 = 1.04$$

$$V = \frac{340}{60^{0.20} \cdot 1.4^{0.15} \cdot 0.74^{0.45}} \cdot 1.04 = 169\text{ m / daq}$$

4.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 169}{3.14 \cdot 48.7} = 1110\text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n=1250\text{ daq}^{-1}$ ni qabul qilamiz.

5.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 48.7 \cdot 1250}{1000} = 191\text{ m / daq}$$

6. Kesish kuchi P_z ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$C_p=300$, $x=1$, $y=0.75$, $n=-0.15$ ([3], 2.24-j, 50-b)

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p = K_{mr} \cdot K_{\varphi r} \cdot K_{\gamma r} \cdot K_{\lambda r} \cdot K_{rp}$$

K_{mp} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mp} = \left(\frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=0.75 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left(\frac{568}{750} \right)^{0.75} = 0.8$$

$K_{\varphi r}=1$, $K_{\gamma r}=1$, $K_{\lambda r}=1$, $K_{rp}=0.1$ ([3], 2.25-j, 52-b)

$$K_p = 0.8 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 1 = 0.8$$

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 1.4^1 \cdot 0.74^{0.75} \cdot 191^{-0.15} \cdot 0.8 = 1219 \text{ N}$$

7. Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; \text{ kVt}$$

$$N_{kes} = \frac{1219 \cdot 191}{60 \cdot 1020} = 3.8 \text{ kVt}$$

8. Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp} = N_d \cdot \eta = 7 \cdot 0.85 = 5.95 \text{ kvt};$$

$N_{kes} \leq N_{shp}$, $3.8 \leq 5.95$, yani ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi $L=l+y+\Delta$, bu yerda: $y=1$ mm keskichni botishi, $\Delta=2$ mm keskichni chiqishi, $l=70$, $i=1$ o'tishlar soni, $L=70+1+2=73$ mm

$$T_a = \frac{73 \cdot 1}{1250 \cdot 0.74} = 0.08 \text{ daq}$$

2-o'tish. F teshik $\varnothing 50$ mm, $l=70$ mm masofda ushlab toza yo'nib kengaytirilsin.

Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori $h=0.65$ mm.

Kesish maromini belgilaymiz.

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz. $t=h=1.4$ mm.

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$S_o=0.5-0.9$ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_o=0.74$ mm/ayl ni qabul qilamiz.

3. Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri, $T=30\dots60$ daqiqa ([3], 46-b)

$T=60$ daqiqa qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$C_v=340$, $x=0.15$, $y=0.45$, $m=0.20$ ([3], 2.19-j, 46-b)

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v=1,04$$

$$V = \frac{340}{60^{0.20} \cdot 0.65^{0.15} \cdot 0.74^{0.45}} \cdot 1.04 = 189 \text{ m / daq}$$

4.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 189}{3.14 \cdot 50} = 1207 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n=1250 \text{ daq}^{-1}$ ni qabul qilamiz.

5.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 50 \cdot 1250}{1000} = 196 \text{ m / daq}$$

6. Kesish kuchi P_z ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$C_p=300$, $x=1$, $y=0.75$, $n=-0.15$ ([3], 2.24-j, 50-b)

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p=0,8$$

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 0.65^1 \cdot 0.74^{0.75} \cdot 196^{-0.15} \cdot 0.8 = 563 \text{ N}$$

7.Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; \text{ kVt}$$

$$N_{kes} = \frac{563 \cdot 196}{60 \cdot 1020} = 1.8 \text{ kVt}$$

8.Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp} = N_d \cdot \eta = 7 \cdot 0.85 = 5.95 \text{ kvt};$$

$N_{kes} \leq N_{shp}$, $1.8 \leq 5.95$, yani ishlov berish mumkin.

9.Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi $L=l+y+\Delta$, bu yerda: $y=1$ mm keskichni botishi, $\Delta=2$ mm keskichni chiqishi, $l=70$, $i=1$ o'tishlar soni, $L=70+1+2=73$ mm

$$T_a = \frac{73 \cdot 1}{1250 \cdot 0.74} = 0,08 \text{ daq}$$

015. Gorizontaal frezalash operatsiyasi.

1-o'tish. C yuza $b=30$ mm, $l=50$ mm masofani ushlab frezalansin.

Qo'yim miqdori $h=2$ mm. Universal frezalash dastgohi 6H81. Ishlov berilayotgan material St 40X, $\sigma_B=568$ MPa.

Kesuvchi asbob disk freza $D=200$ mm, GOST 1671-77. Kesuvchi qismi materiali T15K6, tishlar soni $z=18$ ta; Geometrik parametrlari: $\varphi=60^\circ, \varphi_1=5^\circ, \varphi_0=20^\circ, \lambda=+5^\circ, \gamma=-5^\circ, \alpha=12^\circ$

5. Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

6. $t=h=2$ mm

2. Surish miqdori

$$S_z=0.09-0.18 \text{ mm/ayl} \quad ([3], 2.78-j, 86-b)$$

$$S_z=0.15 \text{ qabul qilamiz}$$

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v;$$

T – frezani turg'unlik davri, $T=240$ daq $([3], 2.85-j, 93-b)$

K_v - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v=1.04$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$C_v=332, q=0.2, x=0.1, y=0.4, u=0.2, r=0, m=0.2$ $([3], 2.84-j, 90-b)$

$$V = \frac{332 \cdot 200^{0.2}}{240^{0.2} \cdot 2^{0.1} \cdot 0.15^{0.4} \cdot 30^{0.2} \cdot 18^0} \cdot 1.04 = 336 \text{ m/daq}$$

4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 336}{3.14 \cdot 200} = 535 \text{ min}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib $n=600$ ayl/daq qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 200 \cdot 600}{1000} = 376 \text{ m/daq}$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0.15 \cdot 600 \cdot 18 = 1620 \text{ mm/daq}$$

Dastgoh pasportidan $S_M=900$ mm/daq qabul qilamiz.

$$U \text{ xolda } S_z = \frac{900}{18 \cdot 600} = 0.1 \text{ mm/daq}$$

7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$R_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp};$$

K_{mp} - to'g'rilash koeffitsienti:

$$K_{mp} = \left(\frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=0.3 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left(\frac{568}{750} \right)^{0.3} = 0.9$$

$$C_p=825, x=1, y=0.75, n=1.1, q=1.3, w=0.2 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

$$P_z = \frac{10 \cdot 825 \cdot 2^1 \cdot 0.1^{0.75} \cdot 30^{1.1} \cdot 18}{200^{1.3} \cdot 600^{0.2}} \cdot 0.9 = 284 \text{ N}$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z \cdot v}{1020 \cdot 60} = \frac{284 \cdot 376}{1020 \cdot 60} = 1,7 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 5,8 \cdot 0,85 = 4,93 \text{ kVt}.$$

$$1,7 \leq 4,93$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 50 \text{ mm},$$

$$y = 0,5 \left(D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0,5 \left(200 - \sqrt{200^2 - 30^2} \right) = 1,1 \text{ mm}$$

$$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm}. \Delta = 3 \text{ mm} \text{ qabul qilamiz.}$$

$$T_{as} = \frac{L}{S_M} = \frac{54,1}{900} = 0,06 \text{ daq}$$

020. Vertikal parmalash operatsiyasi

1-o'tish. $\varnothing 15 \text{ mm}$, $l = 70 \text{ mm}$ masofani ushlab D1 va D2 teshiklar parmalansin.

Dastgoh: Vertikal parmalash dastgohi 2A135.

Kesuvchi asbob va uning geometrik parametrlari: Spiral parma $D = 15 \text{ mm}$, kesuvchi qism materiali, tezkesar po'lat P6M5. Geometrik o'lchamlari

$$2\varphi = 118^\circ; 2\varphi_0 = 70^\circ; \psi = 30^\circ; \alpha = 11^\circ \text{ ([4] 203 bet, 44 jad)}$$

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz.

$$t = D/2 = 15/2 = 7,5 \text{ mm}.$$

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_0 = 0,28 - 0,33 \text{ mm/min. ([3], 2.38-j, 62-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_0 = 0,32 \text{ mm/min}$ ni qabul qilamiz.

3. Parmani turg'unlik davrini aniqlaymiz.

$$T = 25 \text{ daqiqa qabul qilamiz. ([3], 2.43-j, 66-b)}$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot S^y} \cdot K_v \text{ m/daq}$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarni yozib olamiz.

$$C_v = 9,8, q = 0,40, y = 0,50, m = 0,20 \text{ ([3], 2.41-j, 64-b)}$$

To'g'rilash koeffitsientini topamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{uv} \cdot K_{lv}$$

K_{mv} - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_r \left(\frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \text{ ([3], 2.1-j, 34-b)}$$

$$n_v = 0,9; K_G = 1 \text{ ([3], 2.2-j, 35-b)}$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left(\frac{750}{568} \right)^{0,9} = 1,28$$

K_{uv} - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \text{ ([3], 2.6-j, 37-b)}$$

K_{lv} - Teshik uzunligini xisobga oluvchi koeffitsient

$$K_{lv}=1 \quad ([3], 2.44-j, 67-b)$$

$$K_v=1.28 \cdot 1 \cdot 1=1.28$$

$$V = \frac{9.8 \cdot 15^{0.4}}{25^{0.2} \cdot 0.32^{0.5}} \cdot 1.28 = 34 \text{ m / daq}$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 34}{3.14 \cdot 15} = 721 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n=750$ ayl/daq qabul qilamiz.

6. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 15 \cdot 750}{1000} = 35 \text{ m / daq}$$

7. Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

Burovchi moment uchun:

$$C_m=0.0345; q=2.0; y=0.8; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$K_p=K_{mp}$$

$$K_{mp} = \left(\frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=0.75 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left(\frac{568}{750} \right)^{0.75} = 0.81$$

U xolda:

$$M_{kr}=10 \cdot 0.0345 \cdot 15^{2.0} \cdot 0.32^{0.8} \cdot 0.81 = 25 \text{ N} \cdot \text{m}$$

8. O'q bo'yicha kuchni hisoblaymiz:

$$P_0 = 10 \cdot C_p \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

$$C_p=68; q=1.0; y=0.7; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

U xolda :

$$P_0=10 \cdot 68 \cdot 15^{1.0} \cdot 0.32^{0.7} \cdot 0.81 = 3721 \text{ N}$$

9. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{M_{kp} n}{9750} = \frac{25 \cdot 750}{9750} = 1.9 \text{ kvv};$$

10. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{n \cdot s} = \frac{72}{750 \cdot 0.32} = 0.3 \text{ daq}$$

Bu yerda :

$$L = y + \Delta + l = 70 + 1 + 1 = 72 \text{ mm};$$

bu yerda: $y=1$ mm, parmani botishi

$$\Delta=1 \text{ mm, parmani chiqishi, } l=70 \text{ mm, teshik uzunligi.}$$

2-o'tish. D1 va D2 teshiklar $\varnothing 16$ mm, $l=70$ mm masofani ushlab zenkerlansin.

Kesuvchi asbob: zenker $D=16$ mm, kesuvchi qism materiali, tezkesar po'lat P6M5.

Kesish chuqurligini belgilash.

$$t = \frac{D-d}{2} \text{ mm.} \quad t = \frac{16-15}{2} = 0.5$$

2. Surish qiymatini aniqlash.

$$S_0 = 0.5-0.6 \text{ mm/ayl.} \quad ([3], 2.39-j, 63-b)$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_0 = 0.57 \text{ mm/ayl}$ ni qabul qilamiz.

3. Zenkerni turg'unlik davrini aniqlash.

$$T = 30 \text{ daqiqa qabul qilamiz.} \quad ([3], 2.43-j, 66-b)$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlash.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v \quad \text{m/daq}$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v = 16.3, \quad q = 0.30, \quad x = 0.2; \quad y = 0.50, \quad m = 0.30 \quad ([3], 2.42-j, 65-b)$$

To'g'rilash koeffitsientini topish.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{uv} \cdot K_{lv} = 1.28$$

$$v = \frac{16.3 \cdot 16^{0.3}}{30^{0.3} \cdot 0.5^{0.2} \cdot 0.57^{0.5}} \cdot 1.28 = 26.2 \text{ m/daq}$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 26.2}{3.14 \cdot 16} = 520 \text{ ayl/min}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n = 530 \text{ 0 ayl/daq}$ qabul qilamiz.

6. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xak} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 16 \cdot 530}{1000} = 26.6 \text{ m/daq}$$

7. Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

$$C_m = 0.09; \quad q = 1.0; \quad x = 0.9 \quad y = 0.8; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$K_p = 0.81$$

$$M_{kp} = 10 \cdot 0.09 \cdot 16^1 \cdot 0.57^{0.8} \cdot 0.81 = 7.4$$

8. O'q bo'yicha kuchni hisoblash

$$P_0 = 10 \cdot C_p \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

$$C_p = 67; \quad q = -; \quad y = 0.65; \quad x = 1.2; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$P_0 = 10 \cdot 67 \cdot 16 \cdot 0.57^{0.65} \cdot 0.81 = 6025 \text{ N}$$

9. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{M_{kp} n}{9750} = \frac{7.4 \cdot 530}{9750} = 0.4 \quad \text{kvt};$$

10. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{n \cdot s} \text{ daq}$$

Bu yerda :

$$L = y + \Delta + l = 70 + 1 + 1 = 73 \text{ mm};$$

bu yerda: $y = 1 \text{ mm}$, zenkerni botishi

$$\Delta = 1 \text{ mm, zenkerni chiqishi}$$

$l=70$ mm, teshik uzunligi.

$$T_{as} = \frac{73}{530 \cdot 0,57} = 0,24 \text{ daq}$$

025. Vertikal parmalash operatsiyasi.

1-otish. $\varnothing 5$ mm $l=30$ mm masofani ushlab K teshik ochilsin.

Dastgoh: Vertikal parmalash dastgohi 2A135.

Kesuvchi asbob va uning geometrik parametrlari: Spiral parma $D=5$ mm, kesuvchi qism materiali, tezkesar po'lat P6M5. Geometrik o'lchamlari

$$2\varphi = 118^0; 2\varphi_0 = 70^0; \psi = 30^0; \alpha = 11^0 \text{ ([4] 203 bet, 44 jad)}$$

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz.

$$t = D/2 = 5/2 = 2.5 \text{ mm.}$$

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_0 = 0.1-0.15 \text{ mm/min. ([3], 2.38-j, 62-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_0=0.15$ mm/min ni qabul qilamiz.

3. Parmani turg'unlik davrini aniqlaymiz.

$$T = 25 \text{ daqiqa qabul qilamiz. ([3], 2.43-j, 66-b)}$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot S^y} \cdot K_v \text{ m/daq}$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarni yozib olamiz.

$$C_v=9.8, q=0.40, y=0.50, m=0.20 \text{ ([3], 2.41-j, 64-b)}$$

To'g'rilash koeffitsientini topamiz.

$$K_v=1.28$$

$$V = \frac{9.8 \cdot 5^{0.4}}{25^{0.2} \cdot 0.15^{0.5}} \cdot 1.28 = 32 \text{ m/daq}$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 32}{3.14 \cdot 5} = 2062 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n=1600$ ayl/daq qabul qilamiz.

6. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 5 \cdot 1600}{1000} = 25 \text{ m/daq}$$

7. Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

Burovchi moment uchun:

$$C_m=0.0345; q=2.0; y=0.8; \text{ ([3], 2.45-j, 67-b)}$$

$$K_p=0.81$$

U xolda:

$$M_{kr} = 10 \cdot 0.0345 \cdot 5^{2.0} \cdot 0.15^{0.8} \cdot 0.81 = 1.1 \text{ N}\cdot\text{m}$$

8. O'q bo'yicha kuchni hisoblaymiz:

$$P_0 = 10 \cdot C_p \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

$$C_p=68; q=1.0; y=0.7; \text{ ([3], 2.45-j, 67-b)}$$

U xolda :

$$P_0 = 10 \cdot 68 \cdot 5^{1,0} \cdot 0,15^{0,7} \cdot 0,81 = 729 \text{ N}$$

9. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{M_{kp} n}{9750} = \frac{1,1 \cdot 1600}{9750} = 0,18 \text{ kvv}$$

10. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{n \cdot s} = \frac{32}{1600 \cdot 0,15} = 0,13 \text{ daq}$$

Bu yerda :

$$L = y + \Delta + l = 300 + 1 + 1 = 302 \text{ mm};$$

bu yerda: $y=1 \text{ mm}$, parmani botishi

$$\Delta = 1 \text{ mm, parmani chiqishi, } l = 30 \text{ mm, teshik uzunligi.}$$

2- o'tish. $\varnothing 7 \text{ mm}$ $l=5 \text{ mm}$ masofani ushlab N teshik sikofkalansin

Kesuvchi asbob: Sikofka $D=7 \text{ mm}$, kesuvchi qism materiali, tezkesar po'lat P6M5.

Kesish chuqurligini belgilash.

$$t = \frac{D-d}{2} \text{ mm. } t = \frac{7-5}{2} = 1 \text{ mm.}$$

2. Surish qiymatini aniqlash.

$$S_0 = 0,5-0,6 \text{ mm/ayl. ([3], 2.39-j, 63-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_0=0,57 \text{ mm/ayl}$ ni qabul qilamiz.

3. Zenkerni turg'unlik davrini aniqlash.

$$T = 30 \text{ daqiqa qabul qilamiz. ([3], 2.43-j, 66-b)}$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlash.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v \text{ m/daq}$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v = 16,3, q = 0,30, x = 0,2; y = 0,50, m = 0,30 \text{ ([3], 2.42-j, 65-b)}$$

To'g'rilash koeffitsientini topish.

$$K_v = 1,28$$

$$v = \frac{16,3 \cdot 7^{0,3}}{30^{0,3} \cdot 1^{0,2} \cdot 0,57^{0,5}} \cdot 1,28 = 17,8 \text{ m/daq}$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 17,8}{3,14 \cdot 7} = 812 \text{ ayl/min}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n=1100 \text{ ayl/daq}$ qabul qilamiz.

6. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xak} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 7 \cdot 1100}{1000} = 24 \text{ m/daq}$$

7. Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

$$C_m = 0,09; q = 1,0; x = 0,9 y = 0,8; \text{ ([3], 2.45-j, 67-b)}$$

$$K_p = 0,81$$

$$M_{kp} = 10 \cdot 0,09 \cdot 7^1 \cdot 0,57^{0,8} \cdot 0,81 = 3,1$$

8. O'q bo'yicha kuchni hisoblash

$$P_0 = 10 \cdot C_p \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p ;$$

$$C_p = 67 ; q = - ; y = 0,65 ; x = 1,2; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$P_0 = 10 \cdot 67 \cdot 7 \cdot 0,57^{0,65} \cdot 0,81 = 2635 N$$

9. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{M_{kp} n}{9750} = \frac{3,1 \cdot 1100}{9750} = 0,35 \quad \text{kvt};$$

10. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{n \cdot s} \quad \text{daq}$$

Bu yerda :

$$L = y + \Delta + l = 5 + 1 + 1 = 7 \text{ mm};$$

bu yerda: $y = 1 \text{ mm}$, zenkerni botishi

$\Delta = 1 \text{ mm}$, sikofkani chiqishi

$l = 5 \text{ mm}$, teshik uzunligi.

$$T_{as} = \frac{7}{1100 \cdot 0,57} = 0,01 \quad \text{daq}$$

3- o'tish. $\varnothing 15 \text{ mm}$ $l = 8 \text{ mm}$ masofani ushlab M teshik sikofkalansin

Kesuvchi asbob: Sikofka $D = 15 \text{ mm}$, kesuvchi qism materiali, tezkesar po'lat P6M5.

Kesish chuqurligini belgilash.

$$t = \frac{D-d}{2} \quad \text{mm.} \quad t = \frac{15-7}{2} = 4 \text{ mm.}$$

2. Surish qiymatini aniqlash.

$$S_0 = 0,5-0,6 \text{ mm/ayl.} \quad ([3], 2.39-j, 63-b)$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab $S_0 = 0,57 \text{ mm/ayl}$ ni qabul qilamiz.

3. Zenkerni turg'unlik davrini aniqlash.

$$T = 30 \text{ daqiqa qabul qilamiz.} \quad ([3], 2.43-j, 66-b)$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlash.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v \quad \text{m/daq}$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v = 16,3, \quad q = 0,30, \quad x = 0,2; \quad y = 0,50, \quad m = 0,30 \quad ([3], 2.42-j, 65-b)$$

To'g'rilash koeffitsentini topish.

$$K_v = 1,28$$

$$v = \frac{16,3 \cdot 15^{0,3}}{30^{0,3} \cdot 4^{0,2} \cdot 0,57^{0,5}} \cdot 1,28 = 17 \text{ m/daq}$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 17}{3,14 \cdot 15} = 360 \text{ ayl/min}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi $n = 400 \text{ ayl/daq}$ qabul qilamiz.

6. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xak} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 15 \cdot 400}{1000} = 18 \text{ m / daq}$$

7. Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

$$C_m = 0.09; q = 1.0; x = 0.9 \quad y = 0.8; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$K_p = 0.81$$

$$M_{kp} = 10 \cdot 0.09 \cdot 15^1 \cdot 0.57^{0.8} \cdot 0.81 = 6.6$$

8. O'q bo'yicha kuchni hisoblash

$$P_0 = 10 \cdot C_p \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

$$C_p = 67; q = -; y = 0.65; x = 1.2; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$P_0 = 10 \cdot 67 \cdot 15 \cdot 0.57^{0.65} \cdot 0.81 = 5646 \text{ N}$$

9. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{M_{kp} n}{9750} = \frac{6.6 \cdot 400}{9750} = 0.27 \quad \text{kvt};$$

10. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{n \cdot s} \quad \text{daq}$$

Bu yerda :

$$L = y + \Delta + l = 8 + 1 + 1 = 10 \text{ mm};$$

bu yerda: $y = 1 \text{ mm}$, zenkerni botishi

$\Delta = 1 \text{ mm}$, sikofkani chiqishi

$l = 8 \text{ mm}$, teshik uzunligi.

$$T_{as} = \frac{10}{400 \cdot 0.57} = 0.04 \quad \text{daq}$$

030. Gorizontal frezalash.

1-O'tish. H ariqcha $b = 5 \text{ mm}$, $l = 60 \text{ mm}$, $h = 70 \text{ mm}$ o'lchamda ochilsin. Qo'yim miqdori $h = 5 \text{ mm}$. Universal frezalash dastgohi 6H81. Ishlov berilayotgan material St 40X, $\sigma_B = 568 \text{ MPa}$.

Kesuvchi asbob disk freza $D = 160 \text{ mm}$, GOST 2779-73. Kesuvchi qismi materiali T15K6, tishlar soni $z = 24$ ta; Geometrik parametrlari: $\varphi = 60^\circ$, $\varphi_1 = 5^\circ$, $\varphi_0 = 20^\circ$, $\lambda = +5^\circ$, $\gamma = -5^\circ$, $\alpha = 12^\circ$

7. Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

8. $t = h = 5 \text{ mm}$

2. Surish miqdori

$$S_z = 0.09 - 0.18 \text{ mm/ayl} \quad ([3], 2.78-j, 86-b)$$

$$S_z = 0.15 \text{ qabul qilamiz}$$

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v;$$

T – frezani turg'unlik davri, $T = 240 \text{ daq}$ $([3], 2.85-j, 93-b)$

K_v - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v = 1.04$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$$C_v=332, q=0.2, x=0.1, y=0.4, u=0.2, r=0, m=0.2 \quad ([3], 2.84-j, 90-b)$$

$$V = \frac{332 \cdot 160^{0.2}}{240^{0.2} \cdot 5^{0.1} \cdot 0.15^{0.4} \cdot 5^{0.2} \cdot 24^0} \cdot 1.04 = 419 \text{ m/daq}$$

4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

